

## **Ekologiyaning atrofga ta’siri,kelib chiqishi va umumiy tavsifi**

**Mamashokirova Fotima Kenjaboy qizi**

**Isaqjonova Oydinoy Azizbek qizi**

**Maxammadjonova Sevara Fayzullo qizi**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy  
fanlar fakulteti biologiya yo‘nalishi talabalari

[fmamashokirova@gmail.com](mailto:fmamashokirova@gmail.com)

[teshaboyevabumayram@gmail.com](mailto:teshaboyevabumayram@gmail.com)

[isaqjonovaoydinoy@gmail.com](mailto:isaqjonovaoydinoy@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ekologiyaning atrofga foydali va zararli ta’siri, kelib chiqish tarixi, ekologik muommolar,ekologiya haqida umumiy ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologiyaning tarixi, autekologiya, sinekologiya, ekologik obyektlarni kuzatish usullari, yer kurrsasi, ekologik omillar (abiotik, biotik va antropogen omillar), orografik omillar, iqlim omillari, tuproq omillari, ekologik muommolar.

**Аннотация:** В данной статье представлены общие сведения о благотворном и вредном влиянии экологии на окружающую среду, истории возникновения, экологических проблемах и экологии.

**Ключевые слова:** история экологии, аутэкология, синэкология, методы наблюдения экологических объектов, земная кора, экологические факторы (абиотические, биотические и антропогенные), орографические факторы, климатические факторы, почвенные факторы, экологические проблемы.

**Abstract:** This article provides general information about the beneficial and harmful effects of ecology on the environment, the history of origin, ecological problems, and ecology.

**Key words:** history of ecology, autecology, synecology, methods of observing ecological objects, earth's crust, ecological factors (abiotic, biotic and anthropogenic factors), orographic factors, climatic factors, soil factors, ecological problems.

Dunyoda hayotning barqaror bo‘lishligi tabiiy muvozanatga, ya’ni ekologiyaga bog‘liq. Shuning uchun tabiiy muvozanatni saqlash uni yaxshilash,

ya’ni barcha mavjudotlarning, shu jumladan, insonning yashashi uchun qulay sharoit yaratish sayyoramiz miqyosidagi eng muhim masala bo‘lib qolmoqda. Chunki sayyoramizda yashaydigan barcha mavjudotlar (mikroorganizmlar, viruslar, zamburug‘lar, bakteriyalar, past va yuqori tabaqali o‘simliklar, turli xil hayvonlar) tabiat, ya’ni tashqi muhit bilan uzviy bog‘liq. Har qanday mavjudot tashqi muhitdan havo, issiqlik, yorug‘lik, suv, ozuqa kabi moddalarni olib o‘sadi, rivojlanadi, faoliyat ko‘rsatadi va nihoyat, nasi qoldiradi. Fanga nemis olimi, darvinist E. Gekkel «Ekologiya» atamasini tavsiya qildi. «Ekologiya» so‘zi yunoncha bo‘lib,” **oikos**” - yashash muhiti, turar joy va” **logos**” -ta’limot ma’nosini bildiradi. Ya’ni, ekologiya mavjudotlar uchun yashash sharoitlari mos kelishligi haqidagi ta’limotdir. Ekologiya biologiya fanining tarkibiy bo‘lagi bo‘lishi bilan bir qatorda, kimyo, fizika, geologiya, o‘rmonchilik, dehqonchilik, tuproqshunoslik, matematika va boshqa tabiiy fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ekologiya fanining o‘rganadigan predmeti - tirik organizmlar, populyatsiyalar, turlar, biotik va biosferik darajada tashkil qilingan ekotizim va uning tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqasidir. Ekologiyani o‘rganishning bosh obyekti - ekotizim yoki tabiiy komplekslarning birligi, tirik organizmlarning hosil bo‘lishi va ular yashaydigan muhitdir. Ekologiyaning bosh vazifasi - tabiat, jamiyat va ular bog‘liqligining yangi qarashlari, kishilik jamiyatini biosferaning bir bo‘lagi ekanligini boshqalarga o‘rgatishdir. Aslida ekologiyaning vazifasi turlicha bo‘lib, ekologik tizimlarning umumiyligini qonuniyatlarini asosida ishlanmalar berishi, biologik xilma-xillikni o‘rganishi va uni saqlab qolish mexanizmini ishlab chiqish, inson ta’siri natijasida kutiladigan xavf-xatarni baholash va oldindan ko‘ra bilish, tabiiy resurslarni saqlab qolish, ko‘paytirish va undan rasional foydalanishdir. Ekologiya fanining rivojlanishi bosqichma-bosqich bo‘lib, o‘tgan asrning (XIX asrning) 60-yillaridan boshlanadi. Bu fanning rivojlanishi bosqichmabosqich amalga oshib bordi, dastlab ekologiya biologiya fanining bir bo‘lagi hisoblandi, XX asr boshlariga kelib, bir qator fidoyi olimlarning mehnati, ya’ni Ch.Adam va A.Tepsli, Ch.Elpeon, V.N.Sukachev va V.I.Vernadskiy, Aleksandr Gumgold, Charlz Darvin, V.V.Dokuchaev, G.F.Morozov, V.N.Sukachev va boshqalarning tabiatni hamda undagi tirik organizmlarni o‘rganishi orqali ekologiya fani shakllanib bordi. O‘zbekistonda ham bir qator olimlar bu fanning rivojlanishida o‘z hissalarini qo‘sishgan, K.Z.Zokirov, A.M.Muzaffarov, D.N.Qashqarov N.I.Granitov, T.Raximova, A.E.Ergashev va boshqalar o‘z asarlarida ekologiyaning ilmiy masalalarini bayon qilishgan. O‘rta Osiyo

ekologiyasi fanining ilmiy asoschilari bo‘lgan D.N.Kashkarov va E.P.Korovinlar O‘ODU tashkil topgan vaqtarda O‘zbekistonga kelib bioekologiya faniga asos solgan birinchi olimlardir. D.N.Kashkarov Sukachev bilan birgalikda biosenoz haqidagi fikrlarni rivojlantirdi. Ekoliya **umumiyl** yoki **xususiy** hamda **tarmoqli** bo‘ladi. Umumiyl ekoliya yoki **sinekologiya** har xil sistemalar (populatsiyalar, jamoalar va ekosistemalar) ning tuzilishini, xossalarni hamda ularning funksional qonun-qoidalarini, xususiy ekoliya yoki **autekologiya** esa ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o‘zaro munosabatini, turlarning muhitga ko‘proq va uzviy moslashganligini o‘rganadi. Xususiy ekoliya — o‘simlik va hayvonlar ekoliyasiidan iborat.

### **Ekoliya obyektlarini kuzatish usullari**

1. Ekosistemani o‘rganish.
2. Jamoani o‘rganish.
3. Populyatsiyani o‘rganish.
4. Yashash sharoitini o‘rganish.
5. Evalutsion va tarixiy ekologik prinsiplar.

Yer quyosh sistemasidagi organik hayat mavjud bo‘lgan yagona sayyoradir. U quyoshdan o‘rta hisobda 149,6 mln. km. Uzoqda joylashgan sharsimon jismdir. Yer shari uzoq davom etgan evolutsion jarayon natijasida shakllangan bo‘lib, uning geosferalari vujudga kelgan.

- ❖ **Atmosfera-hayot** qatlami
- ❖ **Gidrosfera-suv** qatlami
- ❖ **Litosfera-qattiq** qatlami

Ekoliya omillarining mavjudotlarga ta’sir qilishini aniqlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Ekologik omillar kelib chiqishiga ko‘ra, uch guruhga: abiotik, biotik va antropogen omilga bo‘linadi.

**Abiotik yoki jonsiz omillar:** iqlim, geologik, orografik, gidrogeologik guruhlarga bo‘linadi. Iqlim omillarga yorug‘lik, harorat, yog‘ingarchilik, havo namligi, havo bosimi, shamol, atmosferaning gaz tarkibi, qor qatlami, atmosfera elektri kiradi. Geologik omillarga yer osti suvlari, tuproq ona jinsining fizik va kimyoviy xususiyatlari kiradi. Orografik omillarga turarjoyning relyefi (tog‘li, qirli, pastlik, jarlik va h.k.) kiradi. Relyef muhim omil bo‘lib, u ekotizimga to‘g‘ridanto‘g‘ri



keladigan (iqlim, gidrogeologik, tuproq) omillarni taqsimlaydi. Gidrogeologiya omillariga erkin suv (o'simlikka foydali suv) va uning manbalari (yog'ingarchilik, yer osti suvi), suvning fizik holati va geokimyoviy xususiyati kiradi.

**Biotik omillar.** Bularga yuqori va past tabaqali o'simliklarga ta'sir qiladigan fitogen va hayvonot olamiga ta'sir qiladigan zoogen, o'simlik hamda ularga ta'sir qiladigan tuproq omillari kiradi.

**Antropogen inson omili.** Inson o'zining aql-zakovati, jismoniy mehnat faoliyati bilan o'simliklar va hayvonot olamiga katta ta'sir qiladi. Ekologik omillaming mavjudotlarga ta'sir qilish xillari. Ekologik omillar mavjudotlarga (organizmlarga) turlicha ta'sir qiladi. Shunga ko'ra, ular bevosita va bavosita ta'sir qiluvchilarga bo'linadi. Birinchi guruhga muhitning fizik va kimyoviy xususiyatlari (yorug'lik, issiqlik, suv, havo tuproqning tarkibidagi organik kislota qoldig'i, tuzlar va h.k.), ya'ni o'simlikka bevosita ta'sir qiluvchi omillar kiradi. Ikkinchi guruhga iqlim, relyef, tog' jinslari, tuproqning mexanik tarkibi va boshqalar, ya'ni o'simlik hayotiga bavosita ta'sir ko'rsatadigan omillar kiradi. Aholi sonining yildan yilga oshib borishi sanoat va transportning rivojlanishi, fan texnikaning taraqqiy etishi, insonning biosferaga ko'rsatayotgan ta'sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida u yoki bu ekologik muammolaming kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (stixiyali talafotlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshq.) har qanday hodisalar tushuniladi.

### **Ekologik muammolar 3 guruhga bo'linadi.**

- 1. Umumbashariy (global).**
- 2. Mintaqaviy (regional).**
- 3. Mahalliy (Lokal).**

Qurg'oqchil mintaqalarda daryolardan to'liq foydalanylinda ularning suvi yetmay qolmoqda. 1980-yillarda bunday holat Afrika, Avstraliya, Italiya, Ispaniya, Meksika davlatlari, Nil, Sirdaryo, Amudaryo va ba'zi bir boshqa daryolarda kuzatila boshlandi. Daryolarning sanoat va maishiy zaharii moddalar bilan ifloslanishi o'sib bormoqda. Sanoat yiliga 160 km<sup>2</sup> sanoat oqova suvlarini daryolarga tashlaydi. Bu ko'rsatkich daryolarning umumiy suv miqdorining 10 %ni, ba'zi rivojlangan mamlakatlarda 30 %ni tashkil etadi. Daryo toza suvlarida yildan yilga har xil erigan moddalar, zaharli kimyoviy moddalar va bakteriyalarning miqdori ortib bormoqda.


Insoniyatni, ayniqsa, tropik va subtropik o‘rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U yerdida yiliga dunyo miqyosidagi qirqilishi kerak bo‘lgan o‘rmonlarning yarmidan ko‘pi kesib tashlanmoqda. 160 mln hektar tropik o‘rm onlar vayron bo‘lgan, atigi yiliga 11 mln hektar maydon tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi «Qizil kitob» yaratilishiga sabab bo‘ldi.

**Xulosा:** Yashash muhiti deganimizda, yerning tabiatda tirik organizmlar hayot kechiradigan va o‘zaro bog‘liq holda shakllanadigan joy ekanligi tushuniladi. Tirik organizmlar yerda, suvda, havoda va tuproqda, yer usti va organizmlarda yashab, hayot kechiradi. Ular yashaydigan muhit uzlusiz o‘zgaradi, ammo organizm muhit sharoiti qanday bo‘lmisin, moslashishga harakat qiladi. Organizmlarga tashqi o‘zlar yashab turgan muhitning ta’siri bir qancha omillar orqali o‘tadi. Lekin har qanday holatda ham organizmlar moslashib, hayotning uzlusizligini davom ettirish uchun avlod qoldiradi.

Yashash muhiti barcha tirik organizmlarni qaysi fasl yoki qaysi holatda bo‘lishiga qaramasdan o‘ziga moslashtiradi. Bu kabi holatlar ekologiyaning shakillanishini asosiy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Ekologiyaning atrofga va undagi barcha yashab turgan tirik organizmlarga bo‘lgan ta’siri va ahamiyati juda katta ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ekologik omillar ichida son jihatdan ahamiyatga ko‘ra turlarning chidamlilik chegarasidan chiqadiganlariga chegaralovchi omillar deyiladi. Birgina cheklovchi omilning o‘zi ja’mi omillar qulay bo‘lsa ham, ma’lum bir turning tarqalishiga ta’sir ko‘rsatadi yoki cheklab qo‘yadi. Chegaralovchi omillar ma’lum geografik arealda turlarning tarqalishini aniqlaydi va bir tur organizmnning rivojlanishini, ular juda ko‘p bo‘lganda yoki kam bo‘lganda cheklab qo‘yadi. Ekologik omillarning ta’sir qilishi ma’lum muhitda o‘zgarishi ham mumkin, ular chegaralovchi bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Sog‘lom tabiatni asrash, tabiat in’omlaridan oqilona foydalanish hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak agronomlarga ekologiya bilimini o‘rgatish, ya’ni tabiiy manbalardan oqilona foydalanishni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tashqi muliitning ifloslanishi, o‘simglik va liayvon turlarining yo‘qolib kamayib ketayotganligi, ozuqa va suv manbalarining y^tishmasUgi, tuproq eroziyasi kabi muammolami yoritib berish kerak. Ana shunday noxush holatlardan tabiatni asrash choralarini topish yuzasidan izlanishlar olib borish zarurligiga e’tiborni jalb etish lozim.

## Foydalanimilgan adabiyotlar

- 1** Ruzmatov E.Yu.Qo‘ziboyev.SH.N.Tojiboyev.M.U.  
Bioekologiya(O’simliklar ekologiyasi) Andijon-2020.yil
- 2** D.Yo.Yormatova.X.S.Xushvaqtova.  
Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish .Toshkent-2018yil
- 3** I.Hamdamov.Z.Bobomuradov.E.Hamdamova.  
Ekologiya.Toshkent-2009yil
- 4** P.S.Sultonov.Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari.  
“Musiqa”nashriyoti.Toshkent -2007yil
- 5** H.S.Yo‘ldoshev.SH.M.Avazov.  
Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari.”Ilm ziyo”nashriyoti  
Toshkent-2004yil
- 6** A.K.Xusanov.Hayvonlar ekologiyasi.Andijon -2021yil



# Research Science and Innovation House